

Oriental Journal of Education



THE CONTENT OF DEVELOPING COGNITIVE-METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON A PHILOSOPHICAL APPROACH

Shohjakhon Rakhmatjonov

Independent Researcher at Fergana State University

Fergana, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: cognitive-methodological competence, integrative approach, pedagogical technology, method, tool, assessment, reflexive-technological basis, pedagogical-psychological characteristic.

Received: 05.05.26

Accepted: 06.05.26

Published: 07.05.26

Abstract: This article examines the theoretical aspects of developing cognitive-methodological competence of future teachers, the methodology for developing cognitive-methodological competence of future teachers, the effectiveness of developing cognitive-methodological competence of future teachers. The theoretical and methodological basis for developing cognitive-methodological competence of future teachers is also analyzed.

FALSAFIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOGNITIV-METODOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Shohjaxon Raxmatjonov

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: kognitiv-metodologik kompetentlik, integrativ yondashuv, pedagogik texnologiya, metod, vosita, baholash, refleksiv-texnologik asos, pedagogik-psixologik xususiyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv-metodologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy jihatlarini, bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv-metodologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi, bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv-metodologik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini tadqiq etilgan. Shuningdek, falsafiy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv-metodologik kompetentligini rivojlantirish mazmuni tahlil qilingan.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ФИЛОСОФСКОГО ПОДХОДА

Шохжахон Рахматжонов

Самостоятельный соискатель Ферганский государственный университет
Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	когнитивно-методологическая интегративный подход, технология, метод, рефлексивно-технологическая педагогико-психологическая характеристика.	Аннотация:	В данной статье рассматриваются теоретические аспекты развития когнитивно-методологической компетентности будущих учителей, методология развития когнитивно-методологической компетентности будущих учителей, эффективность развития когнитивно-методологической компетентности будущих учителей. Также анализируются теоретические и методологические основы развития когнитивно-методологической компетентности будущих учителей.
------------------------	---	-------------------	---

Kirish. Falsafa fani borliq, rivojlanish va bilish masalalarini tahlil qilishda muhim o‘rinni egallaydi. Shuningdek, borliq-falsafiy tafakkurning asosiy kategoriyasi, moddiy va ruhiy borliqni xarakterlovchi tushunchalari, tabiat, jamiyat va inson borlig‘i, makon va zamon muammosi atributlari, borliqning yalpi umumiy bog‘langanligi masalasi, uning barqarorligi va beqarorligi, tarkibiy tuzilishini falsafiy anglash, umumiy evolyutsiyaning muhim chizgilari, miqdor va sifat o‘zgarishlari, ularning bir-biriga ta’siri, gnoseologiya taraqqiyoti tarixi, bilish nazariyasi, bilishda hissiylik va mantiqiylik, empiriklik va ratsionallik munosabati, ilmiy bilishda haqiqat muammosi, nazariya va amaliyotning aloqadorligi, dunyoning ilmiy manzarasi va uning evolyutsiyasi, yangi bilimlarni yaratishning falsafiy asoslari kabi masalalarni tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bo‘ljak o‘qituvchilarning kognitiv-metodologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy jihatlari, bo‘ljak o‘qituvchilarning kognitiv-metodologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi, bo‘ljak o‘qituvchilarning kognitiv-metodologik kompetentligini rivojlantirish samaradorligi T.Byuzen, N.German, M.Bernis, M.Pietra, E.Terxart, R.Dyunn, M.Axmetov, A.Bazayeva, L.Bocharova, E.Vyazovova, T.Dobridina, I.Dulchayeva, E.Zeyer, T.Korotenko, L.Osipova, A.Piligin, V.Pustovoytov, S.Roslyakova, U.Inoyatov, N.Muslimov, O.Musurmonova, B.Xodjayev, M.Vahobov, M.Mirsoliyeva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Natijalar va muhokama. “Falsafa” fanining maqsadi - talabalarda borliqning paydo bo‘lishi, evolyutsion taraqqiyot bosqichlari va unda inson omilining ahamiyati haqida umumiy tasavvur hosil qilish; borliqdagi barcha jarayonlarning taraqqiyot (tanazzul) qonunlari, o‘zaro aloqadorligi, yo‘nalish va harakatlanish bosqichlarini o‘rganish hamda ularni kategorial tahlil qilish, O‘zbekistonda

demokratik jamiyatni qurish omillarini bilish uchun zarur bo'lgan chuqur gnoseologik bilimlarni egallashdir.

“Falsafa” fanining vazifasi talabalarda olamning yaralishi va yaratilishi haqidagi ilmiy bilim va malakalarni hosil qildirish; bakalavr bosqichi talabalarida borliqning rivojlanish konsepsiyasi haqida yaxlit tasavvur hosil qildirish, shuningdek, ushbu qonunlarni tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish hamda ilmiy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy xususiyatlarini, ilmiy bilishning yo'llari, bilim shakllari, empirik va nazariy tadqiqot usullarini ilmiylik asosida tadqiq qilish; bilishning xususiy metodlarini o'rganish asosida talabalarda ilmiy tasavvurni hosil qilishdan iborat.

Talabalar bilimlarini yanada chuqurlashtirishlarida falsafaning umumnazariy masalalari bo'lgan ontologiya, rivojlanish, gnoseologiya, falsafa tarixi, jamiyat va madaniyat falsafasi masalalari yuzasidan ma'lum ko'nikma va tasavvurlarga ega bo'lishlari lozim.

Falsafaning umumnazariy masalalari fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

olamning moddiy birligi va xilma-xilligi, materiya, makon va zamon masalalariga turli yondashuvlar; harakat shakllarining xilma-xilligi; borliqda barqarorlik va beqarorlik, o'zaro ta'sir tushunchalari, ayrimlilik, umumiylik va xususiylik ; o'zgaruvchanlik va harakat, o'zgarmaslik va barqarorlikning mohiyati; gnoseologiya, epistemologiya, kriteologiya tushunchalarining o'zaro aloqadorligi va farqi; agnostisizm, skeptisizm, optimizm va pessimizm; kundalik-amaliy ong va ilmiy-nazariy bilim, uning strukturasi, ilmiy bilim, badiiy bilim, ijtimoiy bilimning o'zaro nisbati haqida tasavvurga ega bo'lishi;

bilish nazariyasi haqidagi ta'limotlar; bilish taraqqiyotining umumiy va xususiy qonuniyatlari; hozirgi davr gnoseologiyasining muammolari; bilish nazariyasi va ontologiyaning o'zaro aloqadorligi; bilishda subyekt va obyektning o'zaro aloqasi; empirik va nazariy bilim shakllarining o'zaro aloqasi; haqiqat mezonlari; ilmiy bilishda nazariyani asoslash usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

kundalik va nazariy bilimlar; ilmiy bilishning mohiyati va tuzilishi; bilish taraqqiyoti tarixi; Sharq va G'arb gnoseologiyasining o'zaro aloqadorligi va farqi; bilish shakllarining xilma-xilligi; empiriyadan nazariyaga o'tish jarayonidagi muammoli vaziyat; haqiqatni bilishda dalillarning roli; nazariya va ilmiy dalillarning ziddiyati; fan metodologiyasi; metodologik tamoyillar va yondashuvlar; mantiq metodlari; dunyoning ilmiy manzarasini kompleks muammo sifatida o'rganish;

ijtimoiy bilish; ilmiy ijodning bilishdagi roli; tafakkur, uning mohiyati va asosiy shakllari; ilmiy bilishning ijtimoiy–tarixiy xarakteri; ilmiy bilish dinamikasini aniqlash haqida ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'quv-bilish jarayonlariga didaktik, kasbiy va ijtimoiy-psixologik moslashuvi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni o'qitishning oliy ta'lim tizimiga kirib kelishi, yangi – talabalik maqomiga ega bo'lishi ularda mana shu maqomga iloji boricha

ko'proq muvofiq kelish uchun unga mos xulq-atvor shakllarini tarkib toptirishni talab qiladi. Mazkur jarayon uzoq muddat davom etish tavsifiga ega bo'lib, bu esa ta'lim oluvchi shaxsida turli psixologik va fiziologik darajadagi zo'riqishlarni yuzaga keltirishi mumkin, natijada talabanning faolligi susayadi va talaba nafaqat yangi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtira olmaydi, balki kundalik faoliyatni ham muvafaqqiyatli amalga oshira olmay qoladi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasasiga ijtimoiy moslashuv murakkab, ko'p qirrali hodisa bo'lib, ta'lim olishni uchinchi bosqichining oxirida yakunlanadi. Mazkur jarayonda talabalarning ijtimoiy moslashuvi o'zida ikkita muhim jihatni aks ettiradi: 1) kasbiy faoliyat sohasiga moslashuv: o'quv faoliyatining tashkil etilishi, mazmuni, shart-sharoitlariga moslashish, o'quv-ilmiy faoliyatda mustaqillik ko'nikmasini shakllantirish; 2) ijtimoiy-psixologik moslashuv: talabanning ijtimoiy guruhga, undagi o'zaro munosabatlarga moslashishi, o'zining shaxsiy xulq-atvor uslubini yaratish.

Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijtimoiy moslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni esa, uch guruhga ajratish mumkin: ijtimoiy, psixologik, pedagogik. Ijtimoiy omillarga talabanning yoshi, uning ijtimoiy kelib chiqishi, ta'limning avvalgi bosqichida tugallagan o'quv muassasasining turi kiradi. Psixologik omillar o'z ichiga ham individual-psixologik, ham ijtimoiy-psixologik omillarni qamrab oladi: intellekt, yo'nalganlik (oriyentatsiya), shaxsiy salohiyat, guruhda o'z o'rniga egalik. Ijtimoiy moslashuvga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik omillarga oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining pedagogik mahorat darajasi, universitet va fakultetda ijobiy-emotsional muhitning tashkil etilganligi, axboriy-metodik ta'minlanganlik kabilarni kiritish mumkin.

Muvafaqqiyatli ijtimoiy moslashuv uchun ham professor-o'qituvchi, ham talaba tomonidan maqbul faoliyat yo'nalishi, ya'ni birgalikdagi samarali faoliyat yo'lga qo'yilishi talab etiladi. Talaba o'zi uchun u yoki bu ta'limiy maqsadga erishish yo'llarini izlashi va tanlay olishi kerak, professor-o'qituvchidan esa mazkur holatda fasilatator (qo'llab-quvvatlovchi) vazifasini bajarish talab etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning ijtimoiy moslashuvi eng yuqori darajasini bir paytning o'zida ham muhitni, ham o'z-o'zini o'zgartirishga qaratilgan strategiyalar ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuvning me'yoriy natijasi sifatida shaxsdagi ichki o'zgarishlarni talab qilmaydigan ta'lim subyektining oliy ta'lim muassasasiga moslashishi, shuningdek, xulq-atvorning muqobil modellari(muhitni tark etish yoki yangi shaxsiy o'zgarishlarni qabul qilish)dan biri yuzaga keladi.

Ijtimoiy moslashuvning yaqqol ifodalangan salbiy samaradorlikka ega past darajasi subyektning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishdan bosh tortishi va o'z ichki dunyosiga g'arq bo'lishida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, talabanning xulq-atvori ijtimoiy dezadaptatsiya ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Faol o'qitish metodlarining o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan guruhli ish shakllarini tashkil qilish; ta'lim jarayoniga nisbatan faoliyatli yondashuvni amalga oshirish; o'quv jarayoni ishtirokchilari o'quv faoliyatini amaliy jihatdan

yo'naltirish; ta'limning o'yin va ijodiy xarakter kasb etishini ta'minlash; o'quv jarayonining interfaol tarzda amalga oshirishga erishish; o'quv jarayonida turli shakldagi muloqot, munozara va dialog vaziyatlarini vujudga keltirish; mashg'ulotda bilish faolligini ta'minlash uchun talabalarning mavjud bilimlari va tajribalaridan foydalanish; talabalarning hissiy kechinmalarini bilish faoliyatlarini faollashtirishga safarbar etish; ta'lim jarayonida subyektlarning tahliliy faoliyatlariga keng yo'l ochish kabilar.

Talabalarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirishda ularning bilan ishlashning faol usullarini tanlashlariga e'tibor qaratish talab etiladi. O'qitishning faol metodlari yordamida talabalarda kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash layoqatini tarkib toptirish mumkin. Buning uchun o'qituvchi va talabalar o'zaro birgalikdagi hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga kirisha olishlari zarur. Ular o'z nuqtai nazarlarini qat'iy himoya qilib o'z fikrlarini asoslashlari va boshqalarning fikrlariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Батулин Н.А., Башкатов С.А., Гафарова Н.В. Теоретическая модель личностного благополучия. // Вестник ЮУрГУ. Серия "Психология", 2013. -№4. – Т6. – С.4-14
2. Столяренко Л.Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003
3. Суннатова Р.И. Индивидуально–типологические особенности мыслительной деятельности. Автореф. дис. ... док.псих. наук. – Тошкент: ЎзМУ, 2001
4. Философия: Учебник для вузов / Под. ред. Л.А.Никитич. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2000
5. Эгамбердиева Н.М. Маданий-исонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ҳамда касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти: Педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Т., 2009